O‘smirlarning xarakter xususiyatlari va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlari.

Qo‘qon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.
Ashuvova Gulruxon Oxunovna
munibaxon99@gmail.com
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti
Amaliy psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Malikjonova Oydinoy Akmaljon qizi
malikjonovaoydinoy@gmail.com

Annotatsiya: O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr odatda 11–17 yosh oralig‘ini qamrab oladi va jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda shaxsning xarakter xususiyatlari shakllanib, takomillashadi. O‘smirning o‘zini anglashi, o‘ziga bo‘lgan munosabati va atrofdagilar bilan aloqalari yangi bosqichga ko‘tariladi.O‘smirlar hayotida tengdoshlar guruhi alohida o‘rin egallaydi. Ular ko‘pincha ota-onalardan ko‘ra do‘stlarining fikriga ko‘proq ahamiyat beradilar. Shu sababli tengdoshlar guruhi o‘smir shaxsining rivojlanishida, xarakterining shakllanishida va ijtimoiy moslashuvida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so’zlar: Xarakter aksentuatsiyasi, Shaxsiylik turlari, Psixologik konsept, Shaxsiylik strukturası, Karl Gustav Jung nazariyasi, Ernst Kretschmer yondashuvi, Karl Leonhard klassifikatsiyasi, Andrey Lichko tasnifi, Xarakter tiplari (gipertim, distim, sikloid va boshqalar), Psixologik rivojlanish, O‘smirlar psixologiyasi, Ta’lim-tarbiya jarayoni.

Kirish: O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri

hisoblanadi. Bu davrda shaxsning xarakter xususiyatlari shakllanib, uning dunyoqarashi, qiziqishlari va ijtimoiy munosabatlari rivojlanadi. Ayniqsa, o‘smirlarning tengdoshlar guruhi bilan munosabatlari ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi. Tengdoshlar bilan muloqot jarayonida o‘smirlar o‘z fikrlarini erkin ifodalashni, jamoadagi o‘rnini belgilashni hamda ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘smirlarning xarakter xususiyatlari ularning tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, liderlik, hissiy barqarorlik yoki tortinchoqlik kabi sifatlar tengdoshlar orasidagi mavqe va munosabatlarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘smirlarning xarakter xususiyatlari hamda ularning tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. O‘smirlik davri – inson hayotida jismoniy, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar eng faol kechadigan bosqich bo’lib, aynan shu davrda xarakter shakllanadi, jamiyatdagi mavqei va o‘ziga bo‘lgan munosabatini anglash jarayoni kuchayadi. O‘smirlarning xarakter aksentuatsiyasi, ya’ni ayrim xarakter xususiyatlarining haddan tashqari kuchayishi ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy omillar – oilaviy tarbiya, ta’lim muhitining o‘zgarishi, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri – o‘smirlarning xarakter shakllanishi va ijtimoiy mavqeini belgilashda muhim rol o‘ynamoqda. Ba’zi aksentuatsiyalar (masalan, gipertimik, emotsional, introvert yoki ekstrovert tiplar) o‘smirning jamiyat bilan integratsiyalashuviga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Asosiy qism: Shaxs shakllanishining eng dolzarb davri bu o’smirlik davri bo’lib, bu davrda kasb tanlashda, shaxslararo munosabatlarda ancha qiyinchiliklarni boshdan o’tkazadi. Negaki, atrof-muhit ham shaxsga ta’sir etib, uning shakllanishida bir qancha shart-sharoitlar, muammolar tug’diradi. Bunday vaziyatda har bir odam, o’z-o‘zini

anglashi, tengdoshlariga, ota-onasiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, qiyinchiliklarda sabr qilib yengib o‘tishi kerak. Ko‘proq shaxsiy rivojlanishiga diqqat e‘tiborini qaratishi lozim. Bu davrda hamma qiyinchilik bilan o‘tadi, qiynaladi degani emas va bundan qo‘rqish ham kerak emas. Chunki, ayrim insonlarda bu davr sezilmasdan yengil o‘tib ketadi. Hattoki, qanday o‘tganini ham bilishga ulgurishmaydi. Ammo, shuni unutmasligimiz kerakki, biz har doim o‘tish davrida bo‘lamiz, chunki xarakterimiz o‘zgaruvchandir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi – ta‘lim tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy -axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me‘yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashning boyish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining sifat va xususiyatlariga ega, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart - sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga ko’ra murakkabdir. Ana shu sababli u o‘zida turli fanlar tomonidan ko’rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi. Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud: An‘anaviy - oila va yaqin muhit orqali o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shart- sharoitlarni yaratish. Institutsional - ijtimoiy institutlar va ta‘lim muassasalari tomonidan o‘quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish. Shaxslararo-o‘quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish; Refleksiv-o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baxolash, o’z-o’zini loyixalashni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali indiviual ongni taraqqiy etish. Sharq yulduzi sanalgan Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad Beruniy (973-1048) qarashlarida iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy

bog‘liqlikda aks ettirgan[1]. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shgan buyuk qomusiy olim Abu Ali al-Xusayin ibn Abdulloh ibn Xasan ibn Ali (980-1037) Ibn Sino o‘zining buyuk "Tib Qonunlari" asarida iqtisodiy tarbiya haqida so‘z yuritib; "Agar oila boshlig'i ,deydi Ibn Sino, tajribasizlik va noxaqlik qilsa u oila a‘zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va uning oqibatida bundanda yomon natijalar kelib chiqadi" . Uning fikricha[2] agar oila boshligi yetarlicha ijtimoiylashgan va bu borada ma‘lum tajribaga ega xolatda oilani ijtimoiylashtirsa oila baxtli bo‘ladi. Mutafakkir va davlat arbobi Yusuf xos Xojib o‘zining "Qutadg‘u bilig" asarida ham aynan ijtimoiylashuv masalasiga oid 4ta obraz vositasida mohiyatni ochib bergan[3]. Birinchisi-adolat bo‘lib u Podshox Kuntug’di timsolida, ikkinchisi davlat bo’lib, vazir Oyto‘ldi , uchinchisi- aql bo’lib, vazirning o‘g‘li O‘gdilmish, to’rtinchisi- qanoat bo‘lib Uning qarindoshi O’zgirmish qiyofasida tasvirlangan. Shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashtirish jarayonida iqtisodiy tarbiya masalasi ham muhim o’ringa ega. Bunda buyuk mutafakkir va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher (1441-1501) Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos alohida axamiyat kasb etadi. Allomaning shaxs ijtimoiylashuvi borasidagi qarashlari, asosan, "Xazoyin ul-maoniy"[4]she’ riy devoniga joylangan. Olimlar e’tiborini inson xarakterining namoyon bo’lish xususiyatlariga va ba’zi bir o’xshashlik mavjudligiga qaratgan zahoti, ularning har xil tipologiyalari va tasniflari darhol paydo bo’la boshladi.

O‘smirlarni hali to‘la katta deb hisoblab bo‘lmaydi. Chunki, ularning shaxsiy xususiyatlarida bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baholarida, hayotga va o‘z kelajaklari munosabatlarida ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik o‘smirlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan ma’suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o‘smirning axloqan o‘z-o‘zini anglashi shuningdek, axloqning

[1]A.R. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (Asor al-boqiya). Toshkent: “Fan”, 1998. – 97–99-betlar.
[2] Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asari(1991)
[3] Yusuf Xos Xojib “Qutadg`u bilig” asari (2019)
[4] Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” asari(2019)

yangi bosqichiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o‘smirlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O‘smirlar juda ko‘p muammoli savollarga javob o‘ylaydilar. Ularning diqqatini ko‘proq axloqiy masalalar tortadi.

O‘smirlar har joyda o’zini ko’rsatish xususiyatiga ega bo’lgan vaqtidayoq, o’zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya’ni o‘zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo‘yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, xusn yuzdagi xusinbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o’g’il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o‘z obrazi - bu o‘smirlikning o‘zini anglashi ancha muhim komponent bo‘lib hisoblanadi.

O‘smirlikda o’z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi. O‘smir borgan sari o’z qimmatini, nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benixoya bilgisi keladi. Ba’zi o'smirlar o'zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko’proq uchraydi. Bu holat shunchaki o’sishni bildirib qolmasdan, balki, shaxsda mohiyat jihatidan tubdan boshqacha tarzda o’z shaxsiyatining ma'naviy-ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi maqsad va vazifalarini anglash, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o’z -o’zini anglash turmush, yashash, o’qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi.

O‘quv muassasa mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar ko'lamining kengayishi o’ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xususiyatlarini oqilona baholash, qo’yilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish o’z-o’zini anglashni jadallashtiradi. O‘smir o’quvchilarining o’z-o’zini anglashga aloqador o'ziga xos xususiyatlari mavjud ular, dastavval o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O‘smir o‘quvchining o‘smirlik davridagi boladan o’zgacharoq yana bir xususiyati-bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissini anglash, oz qadr-qimmatini e’zozlash, sezish va faxmlashga ko'proq moyilligidir.

O‘smir oquvchida o‘z-o‘zini anglash negizida o‘z-ozini tarbiyalash istagi tug‘iladi. Natijada unda o‘z-o‘zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko‘rish vujudga keladi. Lekin o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni o‘smir o‘quvchisi ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy hislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki, voyaga yetgan kishilarga xos ko’p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo’naltirilgan bo'ladi. O‘quvchilar o’zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o‘quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlari va hislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o‘z-o‘zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma’naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, shu bilan birga, eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsning psixologik, axloqiy, ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanishi jadallashadi. O‘smir o‘zining ichki dunyosi, qobiliyatlari, qiziqishlari va hayotdagi o‘rnini anglashga intiladi. Shu sababli bu davrda yuz beradigan o‘zgarishlar nafaqat o‘smirning hozirgi hayotiga, balki uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy faoliyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida o‘smirlarning xarakter xususiyatlari va ularning tengdoshlar guruhi bilan munosabatlari o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘smirlar uchun tengdoshlar guruhi muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, ular aynan shu muhit orqali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Tengdoshlar bilan bo‘ladigan munosabatlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga va ijtimoiy tajriba orttirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, salbiy muhit yoki noto‘g‘ri tanlangan do‘stlar davrasi o‘smir shaxsining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglash jarayonining kuchayishi natijasida yoshlar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini

baholashga, tashqi ko‘rinishiga, xarakteriga va imkoniyatlariga tanqidiy yondasha boshlaydilar. Bu esa ularda o‘z-o‘zini tarbiyalash, kamchiliklarini bartaraf etish va ijobiy sifatlarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. O‘smirning o‘z ustida ishlashi, maqsadlar qo‘yishi va ularga erishishga intilishi uning kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va keng ijtimoiy muhit muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishi hamda pedagoglarning to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi o‘smirning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida katta ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkirlarimizning qarashlari ham yosh avlodni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalash masalasi har doim dolzarb bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘smirlik davrida uchraydigan qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va ruhiy kechinmalar tabiiy holat ekanligini unutmaslik lozim. Muhimi, bu jarayonda o‘smirni tushunish, qo‘llab-quvvatlash va uning mustaqil fikrlashiga imkon yaratishdir. Chunki o‘smirning sog‘lom rivojlanishi jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti va barqarorligi uchun muhim omillardan biridir. Demak, o‘smirlarning xarakter xususiyatlari va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlari shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘z-o‘zini anglashi va ma’naviy kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning ijtimoiy muhitini takomillashtirish hamda ijobiy shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bugungi kunda pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat qoidalarini o‘zlashtirishi va ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni bo’lib, unda oila, maktab, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi. Aksentuatsiya turi o‘smirning bu jarayonga qanchalik tez yoki qiyin moslashishini belgilaydi. Masalan, konform o‘smirlar ijtimoiy

me’yorlarga oson moslashsa, epileptoid yoki isteroid tipidagi o‘smirlar konfliktlarga moyil bo‘lishi mumkin.

Demak, xarakter aksentuatsiyalarini inobatga olgan holda ijtimoiylashuv jarayonini boshqarish o‘smirning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam beradi. Shuning uchun pedagoglar va psixologlar o‘smirlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos ijtimoiy sharoit yaratishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ashurova G.Qo’qon universiteti “Qaib, nafs var ruh tushunchalari islom psixologiyasida”. Ta’limda istiqbolli izlanishlar-xalqaro ilmiy-metodik jurnal.№5 \2025 б.56-60-bet.

2.Ashurova G. Kokand Universitety “Shaxs muammosining o’rganilishi”. Miastro Przysztosci impackt factor 9.2.876-879-betlar.
3. Ashurova Gulru Oxunovna Lector (Psychology), Kokand University, Kokand, Fergana, Uzbekistan,The Concept of Emotional Intelligence and Its Coverage in Psychological Sources. https://masterjournals.com/index.php/crjp/issue/view/206

4.Ashurova Gulru Okxunovna Lector (Psychology), Kokand University Kokand, Fergana, UzbekistanSocial Isolation In Children: Neuropsychological Basis Of Emotional Intelligence And The Limbic System
https://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/10635

5.G‘oziyev E.G‘. *Yosh davrlari psixologiyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6.Nishonova Z.T., Alimuhamedov A. *Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
7.Navoiy A. *Xazoyin ul-maoniy*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.